




SEPTEMBER 2020

ROSTOV-ON-DON, RUSSIA

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Conference proceedings available
at virtualconference.press

DOI http://doi.org/10.37057/R_1



Международная научно-практическая конференция

**СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ
АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ**

(Сентябрь 2020г.)

г.Ростов-на-Дону, Россия

Редакционная коллегия:

Узденов Расул Магометович

кандидат юридических наук, доцент, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

Пржиленский Игорь Владимирович

кандидат социологических наук, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

Главный редактор

Долгополов Кирилл Андреевич

кандидат юридических наук, доцент, заведующий кафедрой уголовного права и процесса Северо-Кавказский федеральный университет

Сборник тезисов научно-практической конференции г. Ростов-на-Дону. 2020г – 284с.

DOI http://doi.org/10.37057/R_1

Издательство не несет ответственности за материалы, опубликованные в сборнике. Все материалы поданы в авторской редакции и отображают персональную позицию участника конференции.

Типография Аспект

АГРОКУЛЬТУРА

Mirjalol Mirzaakhmedov, Inoyatullo Sulaymonov, Mirkhond Alimov HARM AND CONTROL MEASURES PLANOCOCCUS VOVAE.....	9
Азимова Мадинабону Гуламджановна КАС ВА КАРБАМИД ЎЎИТЛАРИ АСОСИДА ТАЙЁРЛАНГАН СУСПЕНЗИЯ МЕЪЁРЛАРИНИНГ ЎЎЗАНИ БАҒ САТҲИ ЮЗАСИНИ ЎЗГАРИШИГА ТАЪСИРИ.....	11
Ибадова Сайёра, Дилрабо Дусматова, Дилдора Сайпиёва СТОЛБУР И ФИТОФТОРОЗ БОЛЕЗНЬ ОВОЩНЫХ КУЛЬТУР.....	13
Отабек Сулаймонов, Гузал Дусмуродова, Журабек Яхёев ЦИТРУСОВАЯ БЕЛОКРЫЛКА (DIALEURODES CITRI) ВРЕДИТЕЛЬ ЦИТРУСА.....	15
Сулаймонов Отабек, Машаринов Улугбек, Яхёев Журабек КАРАНТИННЫЙ ВРЕДИТЕЛЬ КАЛИФОРНИЙСКАЯ ЩИТОВКА (QUADRASPIDIOTUS PERNICIOSUS COMST).....	17
А. Анарбаев., Ш.Х. Юлдашева ЧЕРВЕЦЫ И ЩИТОВКИ ДЕКАРАТИВНЫХ РАСТЕНИЙ.....	19
А.Ё.Курбонов., В.А.Автономов., Г.А.Бойхонова ИЗМЕНЧИВОСТЬ ПРИЗНАКА "ВСЕГО СФОРМИРОВАННЫХ КОРОБОЧЕК, НА ОДНОМ РАСТЕНИИ, НА 31.08.2019 Г." У ПЕРСПЕКТИВНЫХ СЕЛЕКЦИОННО-ЗНАЧИМЫХ СЛОЖНЫХ И ПАРНЫХ МЕЖЛИНЕЙНЫХ ГИБРИДНЫХ КОМБИНАЦИЙ ХЛОПЧАТНИКА ВИДА G.HIRSUTUM L.....	22
В.А.Автономов., А.Ё.Курбонов., Г.А.Бойхонова. НАСЛЕДОВАНИЕ ПРИЗНАКА "ДЛИНА ВОЛОКНА" У МЕЖСОРТОВЫХ ГИБРИДОВ F1 НА ФОНЕ ИНФЕЦИРОВАННОМ THELAVIOPSIS BASICOLA.....	25
В.А.Автономов., А.Ё.Курбонов., Г.А.Бойхонова НАСЛЕДОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ К ЧЕРНОЙ КОРНЕВОЙ ГНИЛИ МЕЖСОРТОВЫМИ ГИБРИДАМИ F1 В ВЕСЕННИЙ ПЕРИОД.....	28
У.К.Каюмов., В.А.Автономов., Г.А.Бойхонова ИЗМЕНЧИВОСТЬ И НАСЛЕДУЕМОСТЬ ПРИЗНАКА "ШТАПЕЛЬНАЯ ДЛИНА ВОЛОКНА" У ГЕОГРАФИЧЕСКИ ОТДАЛЕННЫХ ГИБРИДОВ F1 - F2 ХЛОПЧАТНИКА G.BARBADENSE L.....	31
Halkuzieva Mokhira Asatullaevna FIVE YEARS OF FERULA TADSHIKORUM M.PIMEN. AND FERULA FOETIDA (BUNGE) REGEL.....	34
Жуманиёзов Мансурбек Шомуротович., Гиясова Клара Сражитдиновна., Ботиров Азимжон Зокиржон ўғли ТУРЛИ СТРЕСС ШАРОИТЛАРДА ПАРВАРИШЛАНГАН ИПАК ҒУРТИ СЕЛЕКЦИОН ТИЗИМЛАРИ ВА ЗОТЛАРИНИНГ F2 АВЛОДЛАРИ ТЕХНОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ.....	36

ХИМИЯ

Бектурдиев ўўлом Мавлонбердиевич., Юсупова Гўзал Хусан қизи ПРИРОДНЫЕ МИНЕРАЛЬНЫЕ ГЛИНЫ - СЫРЬЁ, ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ КАТАЛИЗАТОРОВ ГИДРООЧИСТКИ.....	40
Рахматова Гузал Ботировна., Қурбанов Мингникул Жумағулович БЕНЗО[В]ТИОФЕН А-АМИНОКЕТОНЛАРИ ҚАТОРИДАГИ БИРИКМАЛАРНИ КОРРОЗИЯ ИНГИБИТОРИ СИФАТИДА ҚўЛЛАШ.....	44

КУЛЬТУРОЛОГИЯ

Eralov Azamat Jomurodovich O'ZBEKISTONDA ISTIQLOL YILLARIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	47
Tajibayeva Latofat Farhodovna MUMTOZ ADABIYOTNING MAZMUNYI YANGILANISHIDA FURQAT IJODINING AHAMIYATI.....	49
Қосимов Тоир Ходжаевич ЗАМОНАВИЙ ШАҲАР ТИЗИМИДА ТАРИХИЙ АРХИТЕКТУРА ЁДГОРЛИЛАРИ.....	52

ЭКОЛОГИЯ

Шокирова Ойжамол Нематуллаева ТАБИАТ ВА ИНСОНИЯТ, - ЁХУД ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ҲАҚИДА.....	59
--	----

ЭКОНОМИКА

Indira Khadjieva REVIEW OF HOUSEHOLD ECONOMIES OF SCALE IN CONSUMPTION.....	63
Xalikchayeva Sadoqat Ixomjonovna IJTIMOIY SOLIQ BAZASI, UNI ANIQLASH TARTIBI VA SOLIQ BAZASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING XUSUSIYATLARI.....	66

СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Mamurova Mahliyo Zafarovna IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMI.....	69
Қурбонбекова Моҳичеҳра Туробжановна ПУЛЛАР ТАКЛИФИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БОРАСИДАГИ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНДАН ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ.....	72
Махмудова Мухлиса Қодиржон қизи БАНК ФОИЛАЯТИГА ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАЪСИРИ.....	74

ИСТОРИЯ

Bobojonova Marhabo Baxshullayevna TARIX VA ABU RAYHON BERUNIY.....	77
Xudoyqulov Jahongir Tula o'g'li., Nuriddinov Abbos Axtatjon o'g'li., Eshboyev Farruh Saydullayevich XIVA XONLIGI SHAJARASIDA MUHAMMAD RAHIMXON I NING TUTGAN O'RNl.....	79
Жўраева Мадина БИОГРАФИК ВА БИБЛИОГРАФИК ТУРДАГИ ИСЛОМ МАНБАЛАРИ.....	81
Қаршибоев Анвар Қамбар ўғли "ПУТЕШЕСТВИЯ" ИБН БАТТУТЫ КАК ЦЕННЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	83
Расулов ўйрат Пардаевич ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХИЙ ХОТИРА ВА МЕРОСГА ЯНГИЧА МУНОСАБАТ НАЗАРИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ.....	86

ЛИТЕРАТУРА

Мамбетирзаева Несибели Муҳаммедсадиковна И.ЮСУПОВ ПОЭЗИЯСИДА ШЕЪРИЙ ШАКЛЛАР ХИЛМА-ХИЛЛИГИ.....	89
Тилегенова А., Исмаилова У. ТЕМА РОДИНЫ В ЛИРИКЕ АЛТЫНГУЛЬ УТЕНИЯЗОВОЙ.....	91
Farmonova M.F. "TOG'LAR QULAYOTGAN ZAMON (ABADIY QALLIQ)" ROMANIDAGI NOREAL OLAM TALQINI.....	94
Арипджанова Нилуфар ФОТИМА ЮСУФ АЛИ ХИКОЯЛАРИДА ИЖОДКОР АЁЛ ОБРАЗИНИНГ ЎЗГАЧА ТАЛҚИНИ.....	97
Мирсабиров Юлдузхан Тухтасиновна "ХАМСА" - ВЕЛИКОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ.....	100

МЕДИЦИНА

Inadullayeva Dilnoza., Bozorova Mahbuba Eshquvvatovna LIFE AFTER THE EPIDEMIC COVID-19.....	103
Барноев Хабиб Бобомуродович ВЛИЯНИЕ АНТИАГРЕГАНТНОЙ ТЕРАПИИ НА ФУНКЦИЮ ПОЧЕК ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК.....	106
Каюмов У.К., Рашидов З.Р., Хидоятова М.Р., Алиджанов С.К., Исматов Б.Н. КАЧЕСТВО ЖИЗНИ У БОЛЬНЫХ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА ПРИ COVID-19.....	107
Рахимов Нодир Махамматкулович., Бойко Елена Владимировна., Хошимов Равшан Абдурасулович ПРОГНОЗ МЕЖДУ БИПОЛЯРНОЙ РЕЗЕКЦИИ ОПУХОЛИ ЕДИНЫМ БЛОКОМ СО СТАНДАРТНОЙ МОНОПОЛЯРНОЙ ТУР МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ.....	109
Султонов Нодир Назирович ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ АНТИАГРЕГАНТНОЙ ТЕРАПИИ НА ГЕМОСТАЗ У БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПОЧЕК.....	111
Fathullaev Sh.Sh. Xikmatullaeva Sh.Sh. VANIMA HURUJLARI BILAN KESHUVCHI KOGNETIV O'GARISHLAR ALOMATLARIGA GENDER OMILINING TA'SIRI.....	113
Абраева Шахноза Эсоновна. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛАТИНСКИХ И ГРЕЧЕСКИХ СИНОНИМИЧНЫХ МОРФЕМ В ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА (НА ОСНОВЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТОВ).....	115
Дусматов Жавлонбек Эркинович., Махаммадова Феруза Тоштемировна РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОТЕЗИРОВАНИЯ НА ИМПЛАНТАТАХ ПО ДАННЫМ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ ТАШКЕНТСКОГО СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА.....	118
Дусматов Жавлонбек Эркинович., Махаммадова Феруза Тоштемировна АНАЛИЗ ПОТРЕБНОСТИ В ПРОТЕЗИРОВАНИИ ПРИ ЧАСТИЧНОЙ И ПОЛНОЙ АДЕНТИИ ПО ДАННЫМ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА.....	119

СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Ливерко Ирина Владимировна, Абдуганиева Эльнора Абраловна, Фаттахова Юлия Эдгаровна НАТРИЙ-УРЕТИЧЕСКИЙ МОЗГОВОЙ ПЕПТИД КАК ФЕНОТИПИЧЕСКИЙ ПРЕДИКТОР ГЕМОСТАЗИОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЕГКИХ.....	120
Н.Г. Гулямов, О.И. Эргашов, Н.Г. Юлдошева ВЫЯВЛЕНИЕ ПРЕПАТОЛОГИЧЕСКИХ И ПАТОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ТКАНИ ЭНДОКАРДА И МИОКАРДА МЕТОДОМ ИММУНОЛОГИЧЕСКОГО СКРИНИНГА У ЖЕНЩИН ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	123
Расуль-Заде Ю.Г., Шукурхужаева Д.Н., Иргашева Н.М. СОВРЕМЕННОЕ ВИДЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОПТИМИЗАЦИИ ПЕРИНАТАЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ У ЖЕНЩИН С СИНДРОМОМ ОГРАНИЧЕНИЯ РОСТА ПЛОДА.....	125
Эшонходжаев О.Д., Бобаев У.Н. АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ВИДЕОТОРАКОСКОПИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ НА ЛЕГКИХ.....	126
Эшонходжаев О.Д., Садыков Р.А., Исмаилов Б.А., Бобаев У.Н. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ БИОСОВМЕСТИМОГО КОМПОЗИЦИОННОГО ГЕЛЯ "ГЕПРОЦЕЛ" ДЛЯ ГЕМО- И АЭРОСТАЗА ПРИ ХИРУРГИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВАХ НА ЛЕГКИХ.....	127

ПЕДАГОГИКА

Abdusamatova Shahodat Khojiakbar daughter, Akhmedova Durdonahon Marufjon daughter, Eshquvvatova Zebiniso Shavkatovna daughter PROSPECTS FOR TEACHING THE TOPIC OF PEDAGOGICAL COMPETENCE AND ITS CONTENT USING THE "APRICOT FLOWER" METHOD.....	129
Karimboyeva Shahzoda Kamoladdin qizi LINE OF SPIRIT: ABOUT NAZAR ESHONQUL'S STORIES WHO IS PROMINENT REPRESENTATIVE OF MODERN UZBEK LITERATURE.....	131
Murodullayev X. I., Sadikova Yorkinoy Salijonovna THE ROLE OF IT AND DIGITAL TOOLS IN MEDICAL EDUCATION.....	135
Ruziyev Erkin Abdirajabovich., Haydarov G'ayrat., Nurboyev Xamid Irisboyevich OLIY TA'LIM TIZIMIDA ANALITIK KIMYONI O'QITISHDA MUTAXASSISLARNING KOMPETENTSIYASIDAN FOYDALANISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI.....	136
Xolova Zarnigor Erkinovna BADMINTON SPORT TURINI MAKTABLARDA RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	138
Мадиев Фаррух Муйсинович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА БУГУНГИ КУНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ РИВОЖЛАНТИШ ЧОРА - ТАДБИРЛАРИ.....	140
Миркасимова Зилола Алишеровна ФАОЛ ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УЛАРИНИНГ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	142
Р.М.Сарсенбаева КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА КАСБИЙ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИНИНГ ЎРНИ ХУСУСИДА.....	144
Турдиева Н.С., Ашурова З.М. ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИХ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ.....	146
Урумбаева Айгуль Нагметовна О РОЛИ ПРОФОРИЕНТАЦИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	149
Алимкулов Нусратилла Рахманкулович., Абдуллаева Дилноза Нарзуллаевна ВОЗМОЖНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ SMART BOARD НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ.....	152
Axmedov Orifjon., Soipov Odiljon FIZIKA VA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	154
Do'schanova Nilufar Sobirbayevna SO'Z VARIANTLARI VA UNGA YONDOSH HODISALARNI O'TISHDA O'YIN TEKNOLOGIYASI.....	156
Hamdamov Erkin Ergashevich GOALS AND OBJECTIVES OF THE Gnostic-LINGUISTIC TRAINING OF THE FUTURE ENGLISH TEACHER.....	158
Ro'zmetova Karomat Odilbekovna ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	160
Shamsiyeva Mahfuza Kuchkarxodjaevna O'QUVCHI-YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNI AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT-KUTUBXONALARDA INTERNET IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.....	162
Xakimova Durdona Alisherovna МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ШЕТ ТИЛИНИ О'РГАТИШ: О'ЙИН ТУРЛАРИ.....	166

СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Xo'janiyozova Dilnoza Sotimovna MAKTABLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTER FAOL USULLARDAN VA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	168
Zokirova Gulruxsora Odilovna MAKTABLARDA MUSIQA MADANIYATI FANI.....	171
Бахромова Т.Н XX АСР БОШЛАРИДА ЯРАТИЛГАН ДАРСЛИКЛАР ХУСУСИДА.....	173
Ф.Н.Алкарва ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ.....	175

ФИЛОЛОГИЯ

Abdusalomova Durdona Valilullo qizi CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA AFSONALARNING BADIY TALQINI.....	177
Barotova Muhiba Orifovna O'ZBEKONA PARALINGVISTIK VOSITALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	180
Bultakov Abdurasul Akbarovich LEKSIKOGRAFIK MEZONLAR.....	182
Erkinboyeva Mexrishod Azamat qizi., Yallaboyeva Oynisa Bolibek qizi., Umarqulov Ali Nahmiddin o'g'li., Dustmurodov Navfal Xushvakt o'g'li EFFECTIVE AND EASY WAY TO LEARN FOREIGN LANGUAGES.....	185
Gubayeva Xurshida Ismatilla qizi KOREYS ZAMONAVIY NASRINING O'ZBEKCHA TARJIMALARI PERSONAJ NUTQIDA GENDER JIHATLARNING TAHLILI.....	188
Jamoldin Yoqubov TASAVVUF TIMSOLLARI HAQIDA MULOHAZALAR.....	192
Latipov Aziz Akbaralievich USE OF DIGITAL RESOURCES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.....	196
M.O. Nosirova VERBALIZATION OF THE STATUS OF THE TEACHER IN THE WORKS OF RUSSIAN LITERATURE OF THE XVIII-XIX CENTURIES.....	200
Mamadaliyev Muhsin Saydazimovich FASOHA ILMINING MAVZUSI.....	202
Nurboyeva Marvarid Tavakkalovna YUSUF KHAS HAJIB'S "KUTADGU BILIG" IS ONE OF THE MOST IMPORTANT EDUCATIONAL ISSUES.....	204
Alioxunova Nasibaxon., Nu'monova Dilafruz Mohirjon qizi ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDAGI SINONIMIK TURKUM SO'ZLAR.....	207
Hamroyeva Maftuna Rasulovna O'ZBEK TILI TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR.....	209
U. Sh. Berdiev PHILOSOPHICAL AND CULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF "MAN" IN CHINESE.....	211
Xabibullayeva Zilolaxon Xikmat qizi ZAMONAVIY TA'LIMDA "KEYS-STADI" METODINING AFZALLIGI.....	213
Yo'ldiyeva Mohira Bahriddin qizi INGLIZ TILIDAGI IBORALARNING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI.....	215
Zakirova Nilufar Kamolovna INOVAIVE METHOD OF TEACHING ENGLISH.....	217
Абдуазизова Дурдона Абдузхуровна ВЗАИМОСВЯЗЬ ПАРАЛИНГВИСТИКИ С РАЗЛИЧНЫМИ НАУКАМИ.....	219
Акарова Шахноза Исмаиловна СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ СТАНОВЛЕНИЯ УЗБЕКСКО- НЕМЕЦКОГО И РУССКО- НЕМЕЦКОГО ДВУЯЗЫЧИЯ ЭТНИЧЕСКИХ НЕМЦЕВ В УСЛОВИЯХ ЕСТЕСТВЕННОГО БИЛИНГВИЗМА.....	222
Балтабаева Дильноза Дильшадбековна., Рустамова Насиба Алишеровна "ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ".....	224
Дўсбеков Дилмурод Абдуллаевич "АЛПОМИШ" ВА "МАНАС"ДОСТОНЛАРИНИНГ НАШРЛАРИ, ЎРГАНИЛИШИ.....	226
Таиров И ДУХОВНОЕ ОБНОВЛЕНИЕ И ВОССТАНОВЛЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ - ФАКТОР ЦИВИЛИЗАЦИОННОГО ПРОГРЕССА.....	228
Ш.С. Холматова РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ И АНТИЦЕННОСТЕЙ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ.....	231
Шомуродов Ойбек Икромович., Салимджанов Хазрат БЛОГИ В СИСТЕМЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖУРНАЛИСТА.....	233

СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Шухратхон Имяминова

НЕМИС ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЯСИНИ КЛАССИФИКАЦИЯЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....235

ФИЛОСОФИЯ

Мамадиева Нилуфар Халиловна

O'QUVCHILARDA "ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH" MUAMMOSI HAQIDA KO'NIKMA HOSIL QILISH.....242

Ҳошимова Г.И

ҲАРБИЙ МАДАНИЯТ - ЖАМИЯТ МАДАНИЯТИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ.....244

Юлдашев Фаррух Абдурахманович

ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ЁШЛАР ЭҲТИЁЖ - МАНФААТЛАРИНИНГ ЎЗАРО УЙЎУНЛИГИ МАСАЛАСИГА ДОИР.....247

ГОСУДАРСТВО И ПРАВО

Khodjayeva Aziza Bahtiyarovna

LEGAL BASIS OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH FAO.....249

Shokhrukh Nuraliev

ADMINISTRATIVE REFORMS AND CREATION OF INCLUSIVE

E-GOVERNMENT IN UZBEKISTAN: CAUSE-AND-EFFECT RELATIONS.....251

Toshpo'latov Shohruх Shuxratovich

МАҲАЛЛИЙ ҲОКИМИЯТ ВАКИЛЛИК ОРГАНЛАРИ: УЛАРНИНГ НАЗОРАТ ВАКОЛАТЛАРИ.....254

И.Б. Джураев

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ СОВЕРШЕНИЯ ПРАВОНАРУШЕНИЙ И ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ - ОДНА ИЗ ОСНОВНЫХ ЗАДАЧ ПРОКУРАТУРЫ.....260

Исмамова Мухаббат Шавкатовна

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТ ҚУРИШДА ЎЗИНИ-ЎЗИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИДА МАҲАЛЛИНИНГ ЎРНИ.....264

Кадиров Элшод Бахтиярович

ЛАНДШАФТ ДИЗАЙНИДА ГЕОПЛАСТИКА.....266

Кушбаков Дилшод Мусурманкулович

ЮРИДИЧЕСКОЕ ЛИЦО КАК СУБЪЕКТ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....269

Тўраев Сардор Абдихаким ўғли

ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИ СОДИР ЭТИШ САБАБЛАРИ ВА УНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....272

Юлдашев Джахонгир Хайитович

УСЛОВИЯ И ОСНОВЫ УПРОЩЕННОГО ПОРЯДКА ПРИЁМА В ГРАЖДАНСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....276

ТЕХНОЛОГИИ

Sharipova Muqaddas Sattorovna

WINDOWS OPERATSION TIZIMI VA UNING XUSUSIYATLARI.....280

Норкулова Карима Тухтабаевна., Маматкулов Машғал Махкамович., Жумаев Ботир Мелибаевич

РЕГЕНЕРАЦИЯ ТЕПЛОЙ ЭНЕРГИИ ДЛЯ СУШИЛЬНЫХ СИСТЕМ С ПАРАБОЛИЧЕСКИМ ГЕЛИОНАГРЕВАТЕЛЕМ.....282

"TOG'LAR QULAYOTGAN ZAMON (ABADIY QALLIQ) " ROMANIDAGI NOREAL OLAM TALQINI

Buxoro muhandislik texnologiya instituti
akademik litseyi o'qituvchisi **Farmonova M.F.**

"Tog'lar qulayotgan zamon (Abadiy qalliq)" asarida Ch.Aytmatovning boshqa ko'plab asarlaridagi kabi qirg'iz xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish - folklorizm hodisasi uchraydi. Analitik folklorizmning mumtoz ko'rinishi sifatida asar tarkibidan joy olgan Abadiy qalliq afsonasidagi Abadiy qalliq - muhabbat va sadoqat ramziga aylangan ruh - noreal olam vakili obrazini ifodalaydi.

"Tog'lar qulayotgan zamon (Abadiy qalliq)" romani IX bobga ajratilgan bo'lib (bu o'rinda Suyun Qorayev tarjimai nazarda tutilmoqda), IV bobda Abadiy qalliq afsonasi sujeti keltiriladi. Afsonani asar bosh qahramoni Arsen Samanchin cheksiz muhabbat bilan ko'ngil qo'ygan mahbubasi - "o'zining Ayasiga" (5;67) hikoya qilib beradi. Bu damlar Arsen uchun ham, hali bozor iqtisodiyotiga iqtidorini tikib ulgurmagan Aydana uchun ham eng baxtli, eng saodatli damlar edi. Olis Yevropada Xaydelberg tepaligida o'zgacha ilhom bilan so'zlangan afsona voqeasi g'oyat ta'sirchandir.

Mahobatli Uzangilash tog'laridagi ovullarda epchilligi va botirligi bilan nom qozongan yosh chopqir ovchi yigit qo'shni ovuldagi go'zal qizni sevib qoladi. Buyuk bir muhabbat qudrati ila bir-biriga ko'ngil bog'lagan oshiq-ma'shuqlar sevgisi uchun hech qanday to'siq yo'qday edi. Biroq folbinning qiz taqdiri haqidagi "baxt yulduzingni qora bulut qoplamasa bas" degan xavotiri va xuddi shu hadikning yigitga ham boshqa bir folbin tomonidan aytilishi sevishganlarni qandaydir sinov kutib turganligiga ishora qiladi. Oradan ko'p o'tmay ularning unashtiruv to'ylari bo'ladi. Va ayni shu tantanada folbin bashoratidagi hadik - "qora bulutlar" ko'lankasi quyuqlashadi. Ichi qoralar, hasadgo'ylar fitna rejasini tuza boshlaydilar. Mashhur ovchi kuyovning yosh bo'lishiga qaramay buncha obro'-e'tiborga, izat-hurmatga sazovor bo'layotgani, ovuldagi eng go'zal qiz bilan oila qurayotganligi, buning ustiga, kelajakda qabila sardoriga ham aylanishi mumkinligi hasadgo'ylarning tinchini buzib, vujudini adovat olovida yondira boshlaydi. Shu sabab ular yashirin suiqasd uchun reja tuzadilar. Yozuvchi shu o'rinda bir fikrni keltiradi : "Odamzot hiylanayranglarining chegarasi bormikan?" (5;71) Bu savolga faqat "yo'q" deb javob berish mumkin. Chunki insoniyat ko'p narsalarning chegarasini buzib, qat'iy me'yorlarni o'zgartirib, o'z kuch-qudrati tantanasi uchun hadsiz, cheku chegarasiz imkon yaratib olgan. Bu imkon sabab u na o'tmish oldida, na bugun oldida, na kelajak taqdirlar oldida va na tabiat oldida o'zini hech nima, hech qanday hodisa uchun javobgar sanamay qo'ygan. Afsona voqealari yuz bergan olis tarixda ham ana shunday hech nima uchun chegarani tan olmaydigan razil insonlar to'dasi mash'um va maknun fitna tayyorlashadi. Bu fitna shunchalar pinhon rejalashtiriladiki, undan na quyosh, na bulut, na daryo va na inson xabar topa olmaydi. Agar buni sezib qolishganda edi, "hatto vazmin tabiat ham bu qabihlikka qarshi chiqqan bo'lar edi" (5;71) nomusdan yuzini yashirgan quyoshi, teskari oqqan daryosi, tinmay jala yog'dirgan buluti bilan. Ammo bunday bo'lmaydi. Unashtiruv marosimi ham, baxtli kelin-kuyov poygasi ham ko'ngildagiday o'tadi. Biroq haqiqiy to'y marosimi boshlanishiga yaqin qolgan kunda to'y dasturxonini uchun ov qilib kelayotgan ovchi yigitni qabiladoshlari mash'um xabar bilan qarshilashadi: unashtirilgan qallig'i boshqa bir yigit bilan katta shaharga qochib ketibdi. Bu gapning yolg'onligini, bunda fitna borligini bildirish uchun qizni o'g'irlagan manfurlar qilmishiga guvoh bo'lgan tabiat g'alayon ko'taradi: yozda qishning ayozli qorbo'roni boshlanib, butun atrof dovulda qoladi. Ammo buni qalbi tilka-pora bo'lgan yigit tushunmaydi. Butun borlig'ini ag'dar-to'ntar qilgan xabardan dong qotgan ovchi nomussiz kelinni topib jazolash uchun o'zini shoshiltirayotgan qarindosh-

urug'lariga shunday deydi: "...Men hech qayoqqa bormayman! Mening shunday qarg'ishga qolganim rost bo'lsa, men ham o'sha yaramasni qarg'ayman. Butkul odam zotini qarg'ayman! Odam bo'lgandan ko'ra hayvon bo'lganim yaxshi, endi jo'nab qolinglar. Dunyoda bironta odamni ko'rgani ko'zim yo'q va bundan buyon meni ham hech kim ko'rmaydi..." (5;75) Shundan so'ng u tog'-u toshga chiqib ko'zdan yo'qoladi, uni qidirgan yaqinlari ham topisholmaydi. Qalbini ayovsiz parchalagan ongli, tilli insonlardan ko'ra dardlarini so'zsiz tinglaguvchi zabonsiz jonotlar orasidagi hayot ma'qul ko'rinadi. Kelin-chi? Tuhmatga qolgan bechora kelin uni o'g'irlab qochgan badkirdorlar qo'lidan daryodan kechuv paytida qutulib qoladi. O'zini daryoga tashlagan jasur qizni to'lqinlar qutqarib qoladi va omon-eson qirg'oqqa yetkazadi. Chunki daryo ularning muhabbat qasamiga guvoh bo'lgan edi, shu guvohlik burchi sabab ham daryo ovchining qallig'ini qutqargan edi. Ammo ovulga qaytgan qalliq oshiq yigiti tog'-u toshlar aro nishonsiz ketganini eshitadi-yu, u ham hech kimga hech nima demay yo'qolib qoladi. O'shandan beri Uzangilash tog'laridan vafodor qalliqning o'z yorini izlab, nola-yu faryod qilishi, mahzun yig'isi eshitiladi:

Qaydasan, qaydasan? Qaysi tog'larda?

Qaydasan, qaydasan, yugursam senga...

Sensiz yuz ko'rsatmas hatto Oy menga.

Sensiz hayot ham, yashamoq ham yo'q...

Men sening yoringman, qaydasan, qayda!

Romanda afsonani so'zlab berayotgan Arsen Samanchinning hayajonlari, qalb kechinmalariga ko'proq urg'u beriladi. U uchun bu kechmish afsona emas, haqiqat! Arsen Abadiy qalliqqa aylanib, hamon zor-intizor, ovchi kuyovini sadoqat va muhabbat bilan tog'ma-tog' izlab yurgan o'sha kelinning pok qudratli muhabbatiga ta'zim qiladi. U hatto ayni shu suhbat chog'ida ham Abadiy qalliqning ishtirok qilayotganiga ishonadi: "Abadiy qalliqning o'zi shu yerda, biz bilan birga bog'da, fonus yonidagi daraxt orqasida turibdi" (5;80). U Aydanani ham shunga ishontirmoqchi bo'ladi. Arsen Abadiy qalliqning buyuk yig'isining - Abadiy qalliq taqdirining, sof ishq va vafodorlik ramziga aylangan qo'shiqning opera sahnasida kuylanishini istaydi. Va bunga Ayani munosib ko'radi: "Ruhlar Xudo seni qayta tiriltirgan va sen Abadiy qalliqning vakili bo'lib qolasan, - deydi. Ular Abadiy qalliqning qo'shiqlarini sening ijrongda xaloyiq oldida eshitishni kutmoqdalar... Sen ishonmayapsan, bir qara, fonus yonidagi daraxtning tagiga qara, Abadiy qalliqning soyasini ko'rmayapsanmi? Uning rahmatlar aytib, bosh egayotganiga va umid bilan boqayotganiga ahamiyat ber. Uning abadiy yosh va go'zal ekaniga qara - u harir shoyi ko'ylak kiyib yelkasiga qanotga o'xshash yopinchiq tashlab olibdi" (5;88). Arsen o'z orzu-istaklariga Aydanani ishontiradi, Aydana opera ijrochisi sifatida Abadiy qalliq yig'isini kuylashga rozi bo'ladi. O'sha Xaydelberg qasridagi oqshomda ular "Abadiy qalliq" operasini yaratish haqida uzoq suhbatlashishadi. Ammo keyin taqdir charxpalagi boshqa yo'sinda aylanadi, orzular orzuligicha qolib ketadi. Bu afsona bevosita Arsen taqdiri bilan bog'liqdir. Chunki u yoshligidan Abadiy qalliq haqidagi afsona-yu qissalarni eshitgan, tog'da Abadiy qalliq uchun yoqilgan gulxanlar atrofida sho'rlik kelin qismatiga yuz martalab achingan, dunyoda shunday sadoqatli qalliq borligiga ishonch ruhida katta bo'lgan edi. U o'z ishonchini reallashtirish umidida Aydanadan madad kutadi - ammo shou-biznes tuzog'iga ilingan Ayasi undan ham, "Abadiy qalliq" operasidan ham voz kechadi.

Afsonadan qad rostlagan Abadiy qalliq obrazi faqatgina shu folklor namunasi sujetida qoldirilmaydi. Yozuvchi bu obrazni butun asar bo'ylab shunday harakatlantiradiki, kitobxon ham Abadiy qalliqning mavjudligiga ishonib qoladi. Afsonada bosh qahramon, shubhasiz, baxtini abadiy izlovchi kelin obrazidir, bu borada yozuvchi Arsen tilidan shunday deydi: "Bu kechmishda aytsang ado bo'lmaydigan qiynoqlarda jasorat ko'rsatgan, haqiqat uchun kurashgan bosh qahramon o'sha kelin, Abadiy qalliqdir" (5;79). Biz esa shu fikrni davom qildirib, bu obraz nafaqat afsonadagi, balki butun asar doirasidagi bosh

qahramon obrazlaridan biridir degan qarashni ilgari surmoqchimiz. Chunki Abadiy qalliq "samoviy obrazi" (5;79) asardagi ishtiroki va egallagan mavqeyiga ko'ra shu darajaga munosibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирза-Ахмедова П.М. Национальная эпическая традиция в творчестве Чингиза Айтматова.- Т., 1980.
2. Aytmatov Ch. Muhabbat e'tirofi. "Sovetskaya Kirgiziya", 1962, 7 sentabr.
3. Aytmatov Ch. Tog'lar qulayotgan zamon (Abadiy qalliq). - T.: VEKTOR-PRESS, 2009. - 252 b.



CERTIFICATE

THIS CERTIFICATE PRESENT TO

Farmonova M.F

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ

**СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ
РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ
ПРОБЛЕМ**

30.09.2020

Date



Кирилл Долгополов

Кирилл Долгополов

DOI http://doi.org/10.37057/R_1

